

# “Mahallabay” ishlash tizimining ijrosi amalda



## “Mahallabay” ishlash tizimining ijrosi amalda

Bugun, 11 iyun kuni Termiz shahrida “Mahallabay” ishlash tizimi doirasida shahar hokimi, 1-sektor rahbari Isroil Xudoyberdiev fuqarolarning murojaatlari yuzasidan qabul o‘tkazdi.

Qabulda 21 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan davolanish masalasida imtiyozli tibbiy yordam olish, moddiy yordam, ish bilan ta‘minlash, imtiyozli kredit olish kabi masalalardagi murojaatlar bildirildi.

Jumladan, fuqaro Fotima Muhammedovaning farzandiga quloq eshitish apparati olish masalasida qilgan murojaati shu kunning o‘zida berilib ijobiy hal etildi.

Xosiyat Vafoqulova esa ko‘zini operatsiya qildirish masalasida moddiy yordam so‘rab qilgan murojaati yuzasidan, mutasaddilarga mazkur fuqaroni “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga qo‘shish hamda davolanishi uchun mablag‘ ajratishi belgilandi.

Fuqarolar Bibixol Jo‘raeva, Ra‘no Menglieva, Shabnam Abdullaeva hamda Qurbonoy Rajabovalar bir martalik moddiy yordam olish masalasidagi murojaati o‘rganib chiqilib,

amaliy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi. Shuningdek, Zulxumor Eshquvvatova va Gulchehra Ximmatovalarning ishga joylashish masalasida qilgan murojaatini hal etilishi bo'yicha mutassadi tashkilot rahbarlariga tegishli topshiriq berildi.

Vaqt talab etiladigan murojaatlarni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi

dalil y nazoratga olindi

